ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZOOLOGIYA INSTITUTI

SOBIROV BOBIR JAMOLOVICH

ZAMONBOBO KO‘LI IXTIOFAUNASINING HOZIRGI HOLATI VA UNING BALIQCHILIKDAGI AHAMIYATI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

UO‘K: 597: 639.3 (575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Sobirov Bobir Jamolovich
Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasining hozirgi holati va uning baliqchilikdagi ahamiyati 3

Собиров Бобир Жамолович
Современное состояние ихтиофауны озера Замонбобо и его рыбохозяйственное значение 21

Sobirov Bobir Jamolovich
Current State of the Ichthyofauna of Lake Zamonbobo and Fishery Significance..... 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 43

ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZOOLOGIYA INSTITUTI

SOBIROV BOBIR JAMOLOVICH

ZAMONBOBO KO‘LI IXTIOFAUNASINING HOZIRGI HOLATI VA UNING BALIQCHILIKDAGI AHAMIYATI

03.00.06 – Zoologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/B1108 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Zoologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.izoology.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kamilov Baxtiyar Ganiyevich** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kuzmetov Abdulaxmet Raymberdiyevich** biologiya fanlari doktori, professor
	Sulaymonov Shahob Hodiyevich biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat agrar universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «14» dekabr kuni soat 10^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 232^{b}-uy, Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: +998 71 289-04-65; E-mail: zoology@academy.uz.).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1744-AR. raqami bilan ro‘yxatga olingan). (100053, Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 232^{b}-uy, Tel.: +998 71 289-04-65)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «26» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «26» noyabrdagi № 10-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.R. Xolmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

G.S. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

A.E. Kuchboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida bioxilma-xillikni saqlash hamda ekotizim barqarorligini saqlab qolish global muammo hisoblanmoqda. Baliqlar populyatsiyasini baholash va bioresurslardan oqilona foydalanish muhim yo‘nalishlardan biridir. Respublikamiz suv havzalarining keskin kontinental iqlimi, cheklangan suv resurslari va kuchli antropogen ta’siri mahalliy ixtiofaunaga salbiy xavf tug‘dirmoqda. Suv havzalaridagi baliq populyatsiyalari zamonaviy usullar asosida yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, mavjud ma’lumotlar hozirgi ekologik holatni to‘liq aks ettirmaydi. Shunga ko‘ra, muayyan geografik xususiyatlarga ega hududlarda baliq ovini tartibga solish, baliq zaxiralaridan oqilona foydalanish va mahalliy ixtiofaunaning biologik xilma-xilligini saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yangi paydo bo‘lgan suv havzalari sharoitiga ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan turlarning moslashish qonuniyatlari, daryo ekosistemasiga xos bo‘lgan reofil ixtiofauna vakillarini yuqori darajadagi ekologik moslashuvchanlikka ega bo‘lgan istiqbolli limnofil ixtiofauna vakillari bilan almashtirish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan ixtiofauna obyektlarini izlash, fenotipik o‘zgarishlarini, morfologiyasi, o‘sishi, o‘lchamlari, jinsiy voyaga yetishi, uvildiriqlarini tashlashi va boshqalarni nazorat qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda yangi irrigatsion suv havzalarida baliqchilik xo‘jaliklarini tashkil etish va ovlanadigan baliq turlarining davlat ro‘yxatini tuzishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada baliqchilik tadqiqotlari va baliq ovini rivojlantirish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan. Hozirgi vaqtda asosiy ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan turlar bir vaqtlar introduksiya qilingan plastiklik darajasi yuqori bo‘lgan turlar bo‘lgani uchun ularning yangi sharoitdagi holatini o‘rganish bo‘yicha doimiy tadqiqotlar olib borish lozim. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-sonli “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] qarorida “... baliq mahsulotlarini yetishtirish, tabiiy suv havza resurslarini aniqlash va monitoringini yuritish bo‘yicha mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta’minlashni amalga oshirish” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, Zamonbobo suv havzasining yangi ekologik sharoitida baliq populyatsiyalarining hozirgi ekologik va biologik holatini ilmiy jihatdan baholash, populyatsiyalarining shakllanishi, moslashuvi va fenotipik o‘zgaruvchanligini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentabrdagi O‘RQ-408-son “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-son “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qarori.

to‘g‘risida”gi qarori, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyuldagi PF-122-sonli “Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini 2019–2028-yillarga mo‘ljallangan davrda tasdiqlash to‘g‘risida”gi 484-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari suv havzalarida baliqchilik faoliyatini rivojlantirish, ov ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq turlarining yangi sharoitda ko‘paya oladigan populyatsiyalarini shakllantirish va ularni sanoat usulida ovlashni o‘zlashtirish bo‘yicha xorijiy olimlar: M. Kottelat (1997, 2012, 2013), M. Kottelat & J. Freyhof (2007), Q. Bone va R. Moore (2008), G.S. Helfman (2009), H.M. Tyus (2011), B.W. Coad (2015), J.S. Nelson (2016) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari suv havzalarida ov ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlarning biologiyasi, morfologik va ekologik xususiyatlari, baliq mahsuldorligini oshirish, ularni sun’iy ko‘paytirish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar N.G. Bogutskaya, A.M. Naseka (2004), R.M. Barxalov (2005), P.A. Popov (2010), D.S. Pavlov, M.A. Skorobogatov (2014), K.P. Prokopov, D.A. Tagaev (2017), D.A. Balashov (2018), N.M. Mirzoyev (2019), A.V. Aldushin (2021), N.V. Kutsenko (2024), M. Mustya (2024), A.I. Galeeva (2024), O. Artayev et al. (2025) va boshqalarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

O‘zbekiston suv havzalari ixtiofaunasining shakllanishi, turlar xilma-xilligi, morfologik va ekologik xususiyatlari, iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha tadqiqotlar G.K. Kamilov (1973), A.A. Amanov (1985), M.A. Abdullaev (1976), D.U. Urchinov (1975), A.X. Hasanov (1981), T.V. Salixov (1990), B. Haqberdiyev (1994), U.T. Mirzayev (1994), G.M. Sayfullaev (1995), D.S. Niyozov (2007), B.G. Kamilov (2019), N. Shamsiyev (2023) va boshqa olimlar tomonidan bajarilgan.

Biroq, yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar bir necha o‘n yillar avval, yangi suv havzalari ixtiofaunasi shakllanishining dastlabki davrida hamda asosan chuchuk suv to‘planadigan suv omborlarida olib borilgan. Drenaj suvlari to‘planadigan, prinsipial jihatdan yangi tipdagi suv havzalari bo‘yicha tadqiqotlar deyarli yo‘q, mavjudlari ham to‘laqonli ma’lumotlarni bera olmaydi. Chunki bunday suv havzalarida suv sho‘rtob xususiyatga ega bo‘ladi, chunki u qishloq xo‘jaligi maydonlarini sho‘rlanishdan yuvish jarayonidan keyin shakllanadi. Shu bilan birga, mazkur suv havzalari baliqlar yashaydigan daryolar bilan bevosita oqim aloqasiga ega emas. Suv qishloq xo‘jaligi yerlaridan o‘ziga xos filtr sifatida o‘tadi va

kollektor-drenaj tarmog‘i orqali yig‘iladi. Drenaj suvlari hisobiga shakllangan shunday ko‘llardan biri Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Zamonbobo ko‘li hisoblanadi. Baliqchilik xo‘jaligi ahamiyatiga ega ushbu suv havzasi sharoitida baliq populyatsiyalari hamda baliqlantirilgan madaniy baliq turlarining rivojlanish xususiyatlari va holatini aniqlash, shuningdek, baliqchilik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Zoologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Buxoro va Navoiy viloyatlari suv havzalari rejimining o‘zgarishi sharoitida baliqlarining zamonaviy holati, ozuqaviy munosabatlari va rivojlanish dinamikasi” (2025-2029 yy.) mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasining turlar tarkibini, turlarning morfobiologik xususiyatlarini aniqlash hamda baliq mahsuldorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasi turlar tarkibini aniqlash;
- asosiy ovlanadigan baliq turlarining morfologik xususiyatlarini o‘rganish;
- suv havzasida asosiy ovlanadigan baliq turlarining tana o‘lchamlari va o‘sish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;
- tadqiq etilayotgan suv havzasi sharoitida baliqlarning jinsiy voyaga yetishini o‘rganish;
- suv havzasining baliq mahsuldorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zamonbobo ko‘lidagi *Rutilus aralensis*, *Carassius gibelio*, *Capoeta heratensis*, *Alburnus chalcoides* va *Cyprinus carpio* turlarining populyatsiyalari olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘rganilayotgan suv havzasi baliq turlarining morfologik xususiyatlari (meristik va plastik belgilari), baliqlarning o‘lchami, o‘sish ko‘rsatkichlari, jinsiy yetilishi va serpushtligi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada baliqlarni umumiy biologik tahlil qilish, meristik belgilarni baholash, plastik ko‘rsatkichlarni aniqlash, jinsiy voyaga yetish va serpushtlikni baholash usullari qo‘llanilgan. Olingan ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadida variatsion, jumladan ko‘p o‘lchovli statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasi 11 oilaga mansub 20 turdan iboratligi, shulardan 13 turi ov ahamiyatiga ega baliq turlari ekanligi aniqlangan. Ko‘l ixtiofaunasi tarkibida *Parabramis pekinensis, Rhodeus ocellatus* va *Micropercops cinctus* kabi turlar ilk bor qayd etilgan;

ilk bor Zamonbobo ko‘lida ovlanadigan baliq turlarining (*Rutilus aralensis*, *Carassius gibelio*, *Capoeta heratensis*, *Alburnus chalcoides* va *Cyprinus carpio*) populyatsiyalari o‘zgaruvchanligi, o‘sishi, jinsiy yetilishi va serpushtlik ko‘rsatkichlari aniqlanib, ularning morfometrik belgilari hamda yangi ekologik

sharoitdagi o‘sish va ko‘payish xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan;

ilk bor Zamonbobo suv havzasidagi baliq populyatsiyalarida, jumladan, *Rutilus aralensis*da *an*-10,8 %, *Carassius gibelio*da *an*-21,7 %, *np*-16,9 %, *ao*-10,7 %, *sd*-13,7 %, *H*-10,4 %, *Capoeta heratensis*da *an*-27 %, *np*-20,3 %, *po*-10,4 %, *ao*-12,3 %, *ej*-10,9 %, *vx*-10,8 % va *Alburnus chalcoides*da *an*-15,1 %, *np*-10,5 % variatsiya ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchanligi aniqlangan;

baliqchilikning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha sanoat usulida baliq ovlashga mosligi, yaylov akvakulturasini rivojlantirish uchun qulayligi, shu bilan birga, baliq turlarining barcha biologik belgilaridagi o‘zgaruvchanligi tur doirasida qolishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hozirgi vaqtda Zamonbobo ko‘lida ov ahamiyatiga ega baliq turlarining turli yosh guruhlari va jinsiy voyaga yetgan individlari mavjudligi aniqlangan. Bu holat suv havzasida mazkur turlarning ko‘payishi va chavoqlarining rivojlanishi uchun qulay ekologik sharoit shakllanganini ko‘rsatgan hamda mo‘tadil iqlim zonasining janubiy qismidagi ichki suv havzalarida baliq ovlashni ilmiy asosda tashkil etish strategiyasiga mos kelishi aniqlangan;

ko‘ldagi ovlanadigan baliq turlarining mavjud to‘dalari tahlil qilinganda yosh baliqlar soni ustunlik qilishi aniqlangan, bu esa suv havzasining baliq mahsuldorligi oshib borayotganligini bildiradi;

Zamonbobo ko‘lining tabiiy ozuqa bazasidan foydalanib, yaylov akvakulturasi usulida har gektar maydonga 14 dona *Hypophthalmichthys molitrix*, 5 dona *Hypophthalmichthys nobilis*, 10 dona *Cyprinus carpio* va 37 dona *Ctenopharyngodon idella* chavoqlari bilan baliqlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi 2023-2026-yillarda o‘tkazilgan ekspeditsiyalar davomida muntazam ravishda material to‘planganligi, har bir turdan olingan namunalarning reprezentativligini ta’minlash maqsadida ham tadqiqot ovlari o‘tkazilganligi hamda baliqchilik xo‘jaligi ovidan baliq namunalari olinganligi, baliqchilik tadqiqotlarining zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, variatsion va ko‘p o‘lchovli statistik tahlil usullarining keng qo‘llanilganligi, natijalarning ilmiy nashrlarda chop etilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi hamda vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor Zarafshon daryosi quyi oqimi sharoitida ov ahamiyatiga ega baliqlarning o‘sishi, jinsiy voyaga yetishi, serpushtlik ko‘rsatkichlari baholanganligi, ushbu ma’lumotlarni faoliyat yuritayotgan yaylov akvakulturasi baliq mahsuldorligini oshirishda, shuningdek, ularni Orol dengizi havzasining boshqa suv havzalarida qo‘llash imkoniyati aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati suv havzalarini baliqlantirish jarayonida bir yozlik chavoqlarning o‘lcham ko‘rsatkichlari hamda ularni o‘stirishning ilmiy asoslangan zichlik me’yorlari ishlab chiqilib, baliqchilik amaliyotiga tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonbobo ko‘lidagi ovlanadigan baliqlarning faunasi va morfobiologik xususiyatlarini tadqiq qilishdan olingan ilmiy natijalar asosida:

Cypriniformes turkumi, Cyprinidae oilasiga mansub *Capoeta heratensis* turi mtDNK COI sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha ma’lumotlar Milliy biotexnologik axborot markazi (NCBI) bazasiga joylashtirilgan (Milliy biotexnologik axborot markazi (NCBI)ning 2026-yil 26-iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, *Capoeta heratensis* turi uchun PZ579911, PZ579918 identifikatsiya raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda turlarni aniqlash va filogeniyasini o‘rganish imkonini bergan;

Buxoro viloyati Zamonbobo ko‘lida tarqalgan baliqlarning 2 oilaga mansub 6 ta tur (24 dona) namunalari respublikada yetakchi bo‘lgan Zoologiya instituti “Zoologiya kolleksiyasi” noyob obyektiga kiritilgan (O‘zR FAning 2025-yil 30-iyuldagi №4/1255-1874-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mavjud baliqlar kolleksiyasi fondini yangi namunalar bilan boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda 13 ta maqola, jumladan 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va tadqiqot o‘tkazish zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasining shakllanishi va o‘rganilganlik darajasi”** deb nomlangan birinchi bobi to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, ushbu bobda Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasining shakllanishi va o‘rganilish tarixi bo‘yicha olimlarning ixtiologik tadqiqotlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Zarafshon daryosi quyi oqimi suv havzalarida ixtiologik tadqiqotlar turli davrlarda olib borilgan bo‘lsa-da, Zamonbobo ko‘li bo‘yicha maxsus va tizimli tadqiqotlar nisbatan kam bajarilgan. Shu sababli Zamonbobo ko‘lida baliq turlari tarkibi, ov ahamiyatiga ega turlarning biologik xususiyatlari, zaxiralari va baliqchilik xo‘jaligidagi ahamiyatini zamonaviy sharoitda muntazam o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasini o‘rganish usullari va tadqiqot materiallari”** deb nomlangan bo‘lib, unda Buxoro viloyati Zamonbobo ko‘li, ovlanadigan baliqlarning biologik-morfometrik xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha yig‘ilgan materiallar va qo‘llanilgan uslublar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishlari 2023-2026-yillarda Buxoro viloyati Zamonbobo ko‘lida olib borildi. Tadqiqot ovlari davomida baliqlar katak o‘lchami 14–70 mm li to‘rlar bilan ovlandi, shuningdek suv havzasidagi sanoat usulda ovlangan baliqlar tahlil qilindi. Ov kuz, bahor va yoz oylarida o‘tkazilgan. Tur identifikatsiyasi o‘tkazilgan (Berg, 1948-1949; Salixov va boshqalar, 2001; Mirabdullaev va boshqalar, 2011, 2021). Tur nomi va oilaga mansubligi “fishbase.de” internet saytiga asosan tuzildi. Ushbu internet saytida 36 535 tur baliqlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasi (2026-yil) bo‘lib, har chorakda bir marta doimiy ravishda yangilanadi.

Meristik belgilar barcha turdagi tahlil qilingan baliqlarda hisoblandi. Baliqlar o‘ng yonboshi bilan maxsus doskaga yotqizilib, tekislandi va raqamli suratga olindi. Plastik ko‘rsatkichlar “Photoshop” dasturidagi “Lineyka” uskunasi yordamida raqamli fotosuratlar bo‘yicha karpsimonlar oilasi vakillari uchun o‘lchash sxemasi bo‘yicha kompyuterda o‘lchandi.

Shuningdek, baliqlarni geometrik morfometriya usuli bilan tahlil qilish qo‘llanildi. Buning uchun baliqlarning tana shakli perimetri bo‘ylab 10 ta nuqta o‘rnatildi, ular biologik jihatdan aniq identifikatsiya qilinadi. Raqamli fotosuratlar bo‘yicha nuqtalar orasidagi to‘g‘ri chiziqlar o‘lchandi, “truss-protocol” tuzildi (Strauss, Bookstein, 1982; Strauss va b., 1990). O‘lchovlar quyidagi formatda ko‘rsatilgan: masalan, “2–4” 2 va 4-belgilar orasidagi to‘g‘ri chiziqli o‘lchovni ko‘rsatadi. Plastik belgilarning mutlaq o‘lchamlari tananing standart uzunligining foiz ko‘rinishidagi indekslariga o‘tkazildi.

Tana shakli va tangachalar shakli turli populyatsiyalar vakillarini tavsiflash va aniqlash imkonini beradi (Ibáñez va b., 2007; Staszny, 2012). Mikroskopda tangachalar suratga olindi. Baliqlar tanasining perimetri bo‘ylab aniq belgilangan nuqtalar bo‘yicha 10 ta va tangachalar konturi bo‘yicha 7 ta nuqta belgilandi (Strauss, 1990).

Plastik belgilarning mutlaq o‘lchamlari standart tana uzunligining foiz miqdoridagi indekslarga aylantirildi. Baliqlarning standart uzunligi va umumiy tana uzunligi o‘rtasidagi nisbat to‘g‘ri chiziqli funksiya formulasi yordamida hisoblandi. Shuningdek, logarifmlangan ko‘rsatkichlarning bog‘liqligi an’anaviy tarzda tahlil qilingan.

Nisbiy holat koeffitsiyenti haqiqiy og‘irlikning (kuzatilayotgan og‘irlikning) uzunlik va og‘irlik tenglamasi asosida hisoblangan nazariy og‘irlikka nisbati sifatida aniqlangan (Andreu-Soler va b., 2006; Veiga, 2009). Determinatsiya koeffitsiyenti va korrelyatsiya koeffitsiyenti aniqlandi. Baholash ko‘rsatkichlari o‘rtacha yillik qiymatlar sifatida qabul qilingan.

Baliqlarning nisbiy sonini aniqlashning mavjud usullari orasida ovlash statistikasi, ovlangan baliqlarning yosh tarkibi va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Umuman olganda, baliq zaxiralarini bashorat qilish va ko‘ldagi baliq

biomassasini aniqlash uchun bir necha usul va formulalardan foydalanish mumkin (Kotlyar, 2004).

Beverton-Xoltning klassik modeli bo‘yicha baliqlar soni aniqlangan va uning tabiiy o‘sishiga mos keladigan bashoratlar tuzilgan. Ko‘ldagi baliq miqdori ma’lum ov maydonidan butun suv havzasiga ekstrapolyatsiya qilish orqali baliq miqdorini bashorat qilish uchun qo‘llaniladigan kvadratik ekstrapolyatsiya usuli yordamida aniqlangan.

Gektariga to‘g‘ri keladigan baliqning umumiy biomassasini hisoblash uchun tutilgan baliq miqdorini baliqning o‘rtacha og‘irligiga ko‘paytirildi. Bu baliqchilik uchun foydali prognozni yaratishga yordam beradi, chunki biomassa baliq turining umumiy resurs hajmini ifodalaydi.

Tadqiqotimiz davomida har bir tashlangan to‘r suv havzasiga 12 soatga tushirildi; to‘rning uzunligi 70-100 metr, eni esa 1 metr, 2 metr, 3 metr va 5 metrni tashkil etdi.

Ma’lumotlar to‘plamini (o‘lchovlar va o‘lchov indekslari) qayta ishlash uchun variatsion statistika va ko‘p o‘lchovli statistika usullari qo‘llanilgan (Lakin, 1990). Jumladan, korrelyatsion tahlil, regression tahlil, bir omilli dispersion tahlil, faktor tahlili va diskriminant tahlili kabi usullardan umumqabul qilingan qator kompyuter dasturlari yordamida foydalanilgan. Shuningdek, statistik ko‘rsatkichlar, jumladan variatsiya koeffitsiyenti (Cv, %) hisoblangan. Statistik testlarda $P \leq 0,05$ qiymatlar ahamiyatli (ishonchli) natija deb qabul qilingan.

Dissertatsiyaning **“Zamonbobo ko‘li baliqlarining morfobiologik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Zamonbobo ko‘lida uchraydigan baliqlarning tur tarkibi, biologik xususiyatlari, morfometrik ko‘rsatkichlari tavsiflandi hamda plastik belgilar indekslarida populyatsiya ichida namoyon bo‘ladigan o‘zgaruvchanlik tahlili to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasi 11 oilaga mansub 20 turdan tashkil topgan. Zamonbobo ko‘lida yashaydigan baliqlardan 13 turi ovlanadigan baliqlar bo‘lib, *Cyprinus carpio*, *Rutilus aralensis*, *Alburnus chalcoides* baliqlarining ovdagi ulushi ko‘p. Zamonbobo ko‘li ixtiofaunasi uchun *Parabramis pekinensis, Rhodeus ocellatus va Micropercops cinctus* turlari ilk bor qayd etilgan (1-jadval).

Ushbu bobning 3.1-bo‘limida *Rutilus aralensis* namunalari tahlil qilingan. Zamonbobo ko‘li *Rutilus aralensis* turida standart tana uzunligi kattaligining umumiy tana uzunligiga kuchli musbat bog‘liqligi aniqlangan ($r = 0,99$), bu to‘g‘ri chiziqli funksiya ko‘rinishidagi regression bog‘liqlik tenglamasi bilan ishonchli tavsiflangan: $SL = 0,8363*TL + 0,0272$. Shuningdek, umumiy tana massasining standart tana uzunligiga kuchli bog‘liqligi ($r = 0,96$) aniqlandi, bu regressiya tenglamasi bilan tavsiflanadi: $W = 0,0183*SL^{3,052}$.

Plastik belgilar absolyut qiymatlari bo‘yicha o‘tkazilgan faktorli tahlil natijalari uchta latent omil ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu omillar birgalikda deskriptorlar umumiy dispersiyasining 85 % ini tashkil etadi. Bosh komponentlar usuli asosida 7 ta latent omil ajratildi va ular umumiy dispersiyaning 88,1 % ini izohlashi aniqlandi. Geometrik morfometriyaning plastik belgilari indekslarining

omilli tahlili 6 ta latent omilning tana shakli kattaliklariga (umumiy dispersiyaning 85,7% ini) va 2 tasining - tangacha shakliga (75,7%) ta'sirini aniqladi.

1-jadval

Zamonbobo ko'li baliqlarining tur tarkibi

№	Baliqlar oilasi va turning nomi	Ovlanadigan baliq turlari	Ov ahamiyatiga ega bo'lmagan turlar	Noyob, kam sonli turlar
	Leuciscidae			
1	*Rutilus aralensis* (Berg, 1916)	+	-	-
2	*Alburnus chalcoides* (Güldenstädt, 1772)	+	-	-
	Cyprinidae			
3	*Capoeta heratensis* (Keyserling, 1861)	+	-	-
4	*Luciobarbus capito* (Güldenstädt, 1773)	-	-	+
5	*Carassius gibelio* (Bloch, 1782)	+	-	-
6	*Cyprinus carpio* (Linnaeus, 1758)	+	-	-
	Acheilognathidae			
7	*Rhodeus ocellatus* (Kner, 1866)	-	+	-
	Xenocyprididae			
8	*Ctenopharyngodon idella* (Valenciennes, 1844)	+	-	-
9	*Hypophthalmichthys molitrix* (Valenciennes, 1844)	+	-	-
10	*Hypophthalmichthys nobilis* (Richardson, 1845)	+	-	-
11	*Parabramis pekinensis* (Basilewsky, 1855)	+	-	-
12	*Hemiculter leucisculus* (Basilewsky, 1855)	+	-	-
	Gobionidae			
13	*Abbotina rivularis* (Basilewsky, 1855)	-	+	-
14	*Pseudorasbora parva* (Temminck & Schlegel, 1846)	-	+	-
	Siluridae			
15	*Silurus glanis* (Linnaeus, 1758)	+	-	-
	Percidae			
16	*Sander lucioperca* (Linnaeus, 1758)	+	-	-
	Channidae			
17	*Channa argus* (Cantor, 1842)	+	-	-
	Poeciliidae			
18	*Gambusia affinis* (Baird & Girard, 1853)	-	+	-
	Gobiidae			
19	*Rhinogobius brunneus* (Temminck & Schlegel, 1845)	-	+	-
	Odontobutidae			
20	*Micropercops cinctus* (Dabry de Thiersant, 1872)	-	+	-
	Jami:	**13**	**6**	**1**

O‘sish sur’ati bo‘yicha olingan ma’lumotlar Zamonbobo ko‘lida *Rutilus aralensis* gonadalarining rivojlanishini tahlil qilish natijalari bilan yaxshi to‘ldiriladi. Standart tana uzunligi 9,2 sm dan yuqori bo‘lgan, 2 yoshli va undan katta barcha individlarda noyabr oyining oxirida gonadalar yetilishning III bosqichida bo‘lganligi aniqlandi. Mart oyidan boshlab esa ushbu individlarda gonadalar III–IV yetilish bosqichida qayd etildi, ya’ni ular jinsiy voyaga yetgan holatda bo‘lgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, gonadalari III–IV yetilish bosqichida bo‘lgan, ya’ni jinsiy voyaga yetgan erkak individlar ham 2–4 yosh guruhlariga mansub bo‘lib, ularning standart tana uzunligi 11–19 sm oralig‘ida bo‘lgan. Erkak individlarda noyabr va mart oylarida Fulton bo‘yicha semizlik koeffitsiyenti 1,5–2,4 oralig‘ida, o‘rtacha 2,0 ni, Klark bo‘yicha esa 1,2–1,9 oralig‘ida, o‘rtacha 1,6 ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar urg‘ochi individlardagi semizlik darajasi bilan deyarli bir xil ekanligi ko‘rsatilgan.

Tadqiq etilgan populyatsiyada Kn ko‘rsatkichi 0,68–1,14 oralig‘ida o‘zgarib, o‘rtacha 0,97 ± 0,01 ni tashkil etgan. Ushbu qiymatning 1 ga yaqin bo‘lishi Zamonbobo ko‘lida *Rutilus aralensis* populyatsiyasining umumiy holati nisbatan barqaror va qulay ekanligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning 3.2-bo‘limida *Carassius gibelio* turining tadqiqot davomida umumiy tana uzunligi 8–32 sm, standart tana uzunligi 6,3–25,5 sm hamda umumiy tana massasi 8,3–560 g oralig‘ida bo‘lgan individlar qayd etilgan.

Carassius gibelio plastik belgilarining mutlaq qiymatlari bo‘yicha bosh komponentlar tahlili (PCA) usulida o‘tkazilgan faktorli tahlil natijasida baliq tana o‘lchamining ustun ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu omilning yuklamasi umumiy dispersiyaning 89,25 % ini belgilashi ko‘rsatildi. Shu sababli keyingi tahlillar plastik belgilar indekslari, ya’ni standart tana uzunligiga nisbatan foiz hisobida ifodalangan ko‘rsatkichlar asosida olib borildi. “Truss-protocol” bo‘yicha plastik belgilar indekslari asosida o‘tkazilgan faktorli tahlilda Kayzer–Meyer–Olkin mezoni qiymati 0,54 ni tashkil etib, tanlanma adekvatligi qabul qilinarli darajada ekanligini ko‘rsatdi. Bartlett sferiklik mezoni qiymati esa $3{,}45 \times 10^{-32}$ bo‘lib, tahlil uchun tanlangan belgilar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligi tasdiqlangan.

Tahlil natijasida “truss-protocol” belgilariga ko‘ra o‘rganilgan plastik ko‘rsatkichlar o‘zgaruvchanligiga ta’sir etuvchi 7 ta yashirin omil ajratilgan. Ushbu omillar umumiy dispersiyaning 85,9 % ini izohladi. Klassik morfometrik belgilar bo‘yicha esa 7 ta omil ajratilib, ular birgalikda umumiy dispersiyaning 79,5 % ini belgilashi aniqlangan.

Fulton bo‘yicha semizlik koeffitsiyenti o‘rganilgan namunada aprel oyida (*Carassius gibelio* turining uvildiriq tashlashidan oldin) 1,11-2,65 (o‘rtacha 1,78) oralig‘ida bo‘ldi, bu ko‘rsatkich baliqlarning tana o‘lchamlaridan qat’i nazar o‘zgarib turdi ($r = 0{,}34$). *Carassius gibelio* tangachalari yirik va sikloid tipga mansub. Tangachaning barcha radiuslari bo‘yicha o‘sishi bilan baliq tanasining o‘sishi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik aniqlangan. Ushbu bog‘liqlikni diagonal radius, ya’ni oldingi va yon sektorlar oralig‘idagi radius misolida ko‘rsatish mumkin: $r = 0{,}94$.

Capoeta heratensis balig‘i haqidagi tadqiqot ma’lumotlari 3.3-bo‘limda keltirilgan. *Capoeta heratensis* individlarida standart tana uzunligi ko‘rsatkichlari umumiy tana uzunligi bilan kuchli to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan (r = 0,98). Umumiy tana massasi esa standart tana uzunligi bilan ham kuchli bog‘liqlik namoyon qildi: $W = 0{,}0312 \times SL^{2{,}83}$; r = 0,94. Shuningdek, umumiy tana massasi bilan umumiy tana uzunligi o‘rtasida ham yuqori darajadagi bog‘liqlik qayd etilgan (r = 0,94).

Tana massasi va tana uzunligi o‘rtasidagi darajali bog‘liqlik tenglamasida daraja ko‘rsatkichi 3 ga yaqinlashishi Zamonbobo ko‘li sharoitida *Capoeta heratensis* uchun yashash muhiti yetarli darajada qulay ekanligini ko‘rsatadi. Barcha plastik belgilar indekslarining taqsimoti normallikka tekshirildi. Shuningdek, faktorli tahlildan foydalanishning maqbulligi Kayzer–Meyer–Olkin mezoni hamda Bartlett sferiklik mezoni asosida tasdiqlangan.

Klassik morfometrik belgilar indekslari bo‘yicha o‘tkazilgan faktorli tahlil natijasida 5 ta latent omil ajratildi. Ushbu omillar birgalikda umumiy dispersiyaning 77 % ini izohladi. Geometrik morfometriya indekslari bo‘yicha ham 5 ta latent omil ajratilib, ular umumiy dispersiyaning 83,92 % ini tushuntirishi aniqlandi. Jinsiy voyaga yetgan *Capoeta heratensis* individlarida Fulton bo‘yicha semizlik koeffitsiyenti 1,1 – 1,4 (o‘rtacha 1,22 ± 0,02) oralig‘ida o‘zgardi, ya’ni suv havzasida yashash sharoiti tur uchun qulay.

Dissertatsiyaning 3.4-bo‘limida *Alburnus chalcoides* turining 50 ta namunasi tahlil qilindi. Namunada umumiy tana uzunligi 14,0–22,0 sm, standart tana uzunligi esa 11,7–19,3 sm oralig‘ida bo‘lgan individlar qayd etilgan. *Alburnus chalcoides* tanasining standart uzunligi va umumiy tana uzunligi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik aniqlangan (r = 0,99), bu chiziqli regressiya tenglamasi bilan ishonchli tarzda tavsiflanadi: SL = 0,9204 * TL - 1,1859.

Alburnus chalcoides plastik ko‘rsatkichlari indekslarining taqsimoti normallikka tekshirilgan. Klassik o‘lchov sxemasi bo‘yicha Kayzer–Meyer–Olkin mezoni 0,227 ni tashkil etdi, Bartlett sferiklik mezoni qiymati esa nolga yaqin bo‘ldi. Ushbu natijalar belgilar o‘rtasida statistik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatgan va faktorli tahlil modelini shakllantirish imkonini bergan.

Klassik o‘lchov sxemasi bo‘yicha o‘tkazilgan faktorli tahlil natijasida 6 ta latent omil ajratildi. Ushbu omillar birgalikda umumiy dispersiyaning 76,6 % ini izohladi. Geometrik morfometriya ko‘rsatkichlari bo‘yicha esa 7 ta latent omil ajratilib, ular umumiy dispersiyaning 88,9 % ini tushuntirishi aniqlangan.

Ushbu bobning 3.5-bo‘limida *Cyprinus carpio* turining tana uzunligi va tana massasi oralig‘idagi bog‘liqlik, semizlik koeffitsiyentlari haqida ma’lumot keltirilgan. *Cyprinus carpio* turining umumiy tana uzunligi 16,0–46,5 sm, standart tana uzunligi 13,5–39,0 sm, umumiy tana massasi esa 70–1280 g oralig‘ida. Tadqiq etilgan *Cyprinus carpio* tanlanmasida baliqlarning standart tana uzunligi bilan umumiy tana uzunligi o‘rtasida juda kuchli ijobiy to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlik aniqlangan. Ushbu bog‘liqlik quyidagi to‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasi bilan ishonchli ifodalandi: SL = 0,8638 × TL – 0,8663 (r = 0,998). Determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0,996 ni tashkil etgan.

Umumiy tana uzunligining standart tana uzunligiga bog‘liqligi ham to‘g‘ri chiziqli regressiya bilan ishonchli tavsiflandi: TL = 1,1533 × SL + 1,125 (r = 0,998). Ushbu holatda ham determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 0,996 ga teng bo‘ldi. Umumiy tana massasi bilan umumiy tana uzunligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash natijasida regressiya tenglamasi darajali funksiya ko‘rinishida ifodalandi: $W = 0{,}0493 \times TL^{2{,}65}$ (r = 0,97). Regressiya tenglamasidagi *b* ko‘rsatkichi 3 dan sezilarli darajada past bo‘lib, bu tadqiq etilayotgan suv havzasi sharoitida *Cyprinus carpio* individlarida manfiy allometrik o‘sish kuzatilishini ko‘rsatgan.

Cyprinus carpio turining umumiy tana uzunligi va umumiy tana massasi ko‘rsatkichlarini logarifmlash hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash natijasida quyidagi tenglamaning ishonchliligi tasdiqlandi: LgW = 2,65 × LgTL – 1,307 (R^2 = 0,987). Zamonbobo ko‘lida mart oyida, ya’ni qishlash davridan keyin, *Cyprinus carpio* individlarining Fulton bo‘yicha semizlik koeffitsiyenti 1,16–1,90 oralig‘ida o‘zgarib, o‘rtacha 1,48 ± 0,02 ni tashkil etgan. Nisbiy holat koeffitsiyenti (Kn) esa 0,78–1,21 oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha 1,00 ± 0,01 ga teng bo‘lgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Baliq turlari biologik ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanligi, zaxiralarini baholash va baliq mahsuldorligini oshirish**” deb nomlanib, ikkita bo‘limdan iborat. Bobning 4.1-bo‘limida Zamonbobo ko‘lida ov ahamiyatiga ega baliq turlarining biologik ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchanligi tahlil qilingan va plastik belgilari boshqa suv havzalari bilan taqqoslangan.

Zamonbobo ko‘lidagi jinsiy voyaga yetgan *Rutilus aralensis* individlari uchun uchta latent, ya’ni yashirin omil ajratilgan. Shuningdek, har bir latent omil tarkibida plastik belgilar mutlaq ko‘rsatkichlarining qanday faktor yuklamalariga ega ekanligi ko‘rsatildi. Shu bilan birga, nisbiy ko‘rsatkichlar, ya’ni standart tana uzunligiga nisbatan hisoblangan indekslar bo‘yicha 7 ta latent omil aniqlangan.

Rutilus aralensis to‘dasining holati hamda uning biologik xususiyatlarga mosligini baholashda o‘sish sur’atlariga oid ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiq etilgan to‘daning o‘sish ko‘rsatkichlari O‘zbekistonning boshqa suv havzalaridagi *Rutilus aralensis* populyatsiyalari bilan taqqoslangan (2-jadval).

Taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatadiki, Zamonbobo ko‘lida *Rutilus aralensis*ning o‘sish sur’ati O‘zbekistonning yirikroq va ekologik jihatdan nisbatan barqaror shakllangan suv havzalaridagi populyatsiyalarga nisbatan pastroq.

Nazariy jihatdan baliq tana massasi tana uzunligining uchinchi darajasiga yaqin bog‘liqlikda bo‘lganda, individlarning holati nisbatan qulay deb baholanadi. Aniqlangan bog‘liqliklar asosida biz tadqiq etilgan namuna uchun tana massasining nazariy qiymatlarini qayta hisoblandi va ular kuzatilgan qiymatlarga yaqin ekanligi aniqlandi. Bu holat Zamonbobo ko‘lida *Rutilus aralensis* to‘dasining umumiy holati yaxshi ekanligini, shuningdek, ushbu turning ko‘ldagi ov tarkibida yetarli darajada yuqori texnologik sifatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Bizning tanlanmamizda aprel oyida, ya’ni uvildiriq tashlash davri oldidan, barcha *Carassius gibelio* individlarida semizlik koeffitsiyenti 1,11 dan yuqori bo‘ldi, o‘rtacha qiymati esa 1,78 ni tashkil etdi. Ushbu natijalar hozirgi vaqtda Zamonbobo ko‘li sharoiti *Carassius gibelio* uchun qulay ekanligini ko‘rsatadi.

2-jadval

O‘zbekistonning turli suv havzalaridagi *Rutilus aralensis* turining o‘rtacha uzunligini taqqoslash

Suv havzalari	SL_1, sm	SL_2, sm	SL_3, sm	SL_4, sm	Mualliflar
Uchqizil suv ombori	10,7	16,0	19,7		Kamilov, 1973
Quyimozor suv ombori	8,4	12,2	14,0		Kamilov, 1973
Aydarko‘l ko‘li	5,5	11,8	19,3	24,5	Namozov va boshqalar, 2020
Zamonbobo ko‘li	6,2	11,9	17,4	20,5	Bizning ma’lumotlarimiz

